

MAFKURAVIY IMMUNITETNI YOSH AVLODDA SHAKLLANTIRISH HAMDA HAYOTIY POZITSIYAGA EGA BO'LISHNING MUHIM SHARTI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14195085>

Shermatov B.B

*dotsent, podpolkovnik O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari Akademiyasi
Qurollanish va otish kafedrasida katta o'qituvchisi.*

Annotatsiya

Ekstremizm, terrorizm, giyohvandlik, odam savdosi, noqonuniy migratsiya, "Ommaviy madaniyat" kabi xavf-xatarlar tobora kuchayib borayotgan bugungi kunda, odamlarning mafkuraviy immunitetini yanada mustahkamlash, ayniqsa yoshlarni mazkur xavf-xatarlardan asrash va ularda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish masalalari dolzarbligicha qolmoqda. Mazkur maqolada yosh avlodda mafkuraviy immunitetni shakllantirish ularda mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'lishning muhim sharti ekanligi yuzasidan fikr yuritiladi.

Аннотация

Сегодня, когда такие угрозы, как экстремизм, терроризм, наркотики, торговля людьми, нелегальная миграция и «народная культура», становятся все более интенсивными, актуальны вопросы дальнейшего укрепления идеологического иммунитета людей, особенно защиты молодежи от этих угроз и формирования сильной жизненной позиции в них, остаются актуальными. В данной статье рассматривается тот факт, что формирование идеологического иммунитета у молодого поколения является важным условием формирования у него твердой жизненной позиции.

Annotation

Today, when threats such as extremism, terrorism, drugs, human trafficking, illegal migration, and "Popular culture" are becoming more and more intense, the issues of further strengthening the ideological immunity of people, especially protecting young people from these threats and forming a strong life position in them, remain relevant. This article discusses the fact that the formation of ideological immunity in the young generation is an important condition for them to have a strong life position.

Kalit so'zlar

“kasalini”, “epidemiyasini”, “omnaviy madaniyat”, “demokratiya”, “Rangli inqilob”, transformatsiya, geosiyosiy, tarbiya, immunitet, his-tuyg’u, iroda, qurolli mojarolar, Internet, Ekstremistik.

Ключевые слова

«болезнь», «эпидемия», «популярная культура», «демократия», «Цветная революция», трансформация, геополитика, образование, иммунитет, эмоции, воля, вооруженный конфликт, Интернет, экстремизм.

Key words

“disease”, “epidemic”, “popular culture”, “democracy”, “Color Revolution”, transformation, geopolitical, education, immunity, emotion, will, armed conflict, Internet, Extremist.

Ma’ulmki, yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo’lib kelgan. Ammo, biz yashayotgan XXI asrda mazkur masala hayot-mamot masalasiga aylanib ulgurdi. Chunki, dunyoda avjiga chiqib borayotgan beshafqat raqobat, qarama-qarshilik va ziddiyatlar tobora keskin tus olib, insoniyatning asrlar davomida amal qilib kelayotgan e’tiqodlari, qadriyatlarini va ruhiyatini izdan chiqarmoqda.

Mutaxassislarining fikriga ko’ra, buning asosiy sababi har sohada kuzatilayotgan globallashuv jarayonlari zamirida ayrim xorijiy davlatlar va siyosiy kuchlar tomonidan ma’naviyatsizlik “kasalini”, axloqsizlik “epidemiyasini”, o’zining falsafasini, meyor va mezonlarini “jahon standarti” darajasiga ko’tarib, boshqalarga zo’rlab singdirish va ulardan o’z geosiyosiy maqsadlariga erishish yo’lida foydalanishga urinayotganligidadir.

Yuqorida qayd etilgan tahdidlar bugungi yosh avlodning ta’lim-tarbiyasi, ma’naviyatiga alohida e’tibor qaratishni va ularda mukstahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish borasida kechiktirib bo’lmas choralar ko’rishni taqozo etmoqda. Mazkur masala bugungi kunda nafaqat O’zbekiston, balki butun dunyo uchun ham dolzarbdir.

Xususan, bu haqda mamlakatimiz Prezidenti - Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo’mondoni Shavkat Mirziyoyev 2017 yil 19-20 sentabr kunlari BMT Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi o’z nutqida: “Ekstremistik faoliyat va zo’ravonlik bilan bog’liq jinoyatlarning aksariyati 30 yoshga yetmagan yoshlar tomonidan sodir etilayotganligiga to’xtalib, yoshlarning o’z salohiyatini namoyon qilishi uchun sharoit yaratib berish va ular orasida zo’ravonlik g’oyasi “virusi”ning tarqalishini oldini olish, dunyo hamjamiyatining asosiy vazifalaridan biri ekanligini alohida ta’kidladilar”.

Tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, destruktiv kuchlar o'z ta'sir kuchi qaratilgan jamiyatlarda namoyishlar va turli noroziliklarni keltirib chiqarish uchun "ommaviy madaniyat"ni keng yoyilishini asosiy shart sifatida belgilaydi. Ular axloqsizlik, zo'ravonlik, "demokratiya" va millatchilik g'oyalari keng targ'ib qilish uchun ta'sir obyektining ta'lim-tarbiya, madaniyat va boshqa sohalariga OAV, ayniqsa Internet orqali suqilib kirmoqda.

Manbalarda keltirilishicha, hozirda turli terrorchi tashkilotlar g'oyalari targ'ib-tashviq qilishga mo'ljallangan veb-saytlarning soni 10 000 dan oshgan.

Shu bilan bir qatorda, O'zbekistonda ham Internetga ulanganlar soni ham kun sayin ortib bormoqda va 10 milliondan ko'proqni tashkil etadi.

"Rangli inqilob" texnologiyasi asoschilaridan biri, Djin Sharppning ta'kidlashicha, "Namoyishchilarni bir zumda, boshqarilmaydigan janjalkash to'daga, ularni esa hukumat kuchlari bilan kurashadigan "armiya"ga aylantirish mumkin, bu uchun faqat o'sha odamlarning, ayniqsa hissiyotlarga tez beriladigan yoshlarning qarashlari, madaniyati va ruhiyatini oldindan xuddi shunday harakatlarga tayyorlash lozim, bunda Internetning o'rni beqiyosdir".

Xususan, bunda jamiyatning turli qatlam vakillari, ayniqsa yoshlar yuqorida qayd etilgan ta'sir subyektlarining asosiy nishoni sifatida belgilanganligi, yosh avlod ta'lim-tarbiyasiga befarq bo'lgan, ularni turli buzg'unchi g'oyalar ta'siridan asrashda sustkashlik qilgan mamlakatlarda qonli mojarolar va turli ziddiyatlarni keltirib chiqarmoqda.

Bunga misol qilib, Shimoliy Afrika, Yaqin Sharq mintaqalari va Ukrainadagi qurolli mojarolar g'oyaviy-mafkuraviy ta'sirlar natijasida tashkil etilgan namoyishlar bilan boshlanib, keyinchalik ular qurolli mojaroga transformatsiya qilinganligini va mazkur xududlar bugungi kunda batamom harbiy harakatlar teatriga aylanganligini ko'rish mumkin.

Shu o'rinda mafkuraviy immunitet va qurolli mojarolar o'rtasidagi quyidagi aloqadorligini belgilash mumkin.

*Birinchi*dan, dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalarning ma'lum bir xududdagi shiddatli rivojining dinamikasi o'sha yerning odamlari, ayniqsa yoshlarida buzg'unchi va yod g'oyalarga nisbatan qarshi tura oladigan ichki kuchning zaifligi yoki umuman yo'qligi bilan bog'liqdir.

*Ikkinchi*dan, zamonaviy axborot makonlaridagi axborot-psixologik ta'sirlar mafkuraviy immuniteti zaif bo'lgan yoshlar qalbi va ehtiyojlar tizimini butunlay o'zgartirib, ularni terrorchi va destruktiv kuchlarning safarbarlik zahirasiga aylantirmoqda. Shuning uchun, Yaqin Sharq va boshqa mintaqalarda ularni

butunlay qirib tashlashning iloji bo'lmayapti. Xususan, harbiy harakatlar teatriga turli ta'sirlar oqibatida yoshlarning kirib kelishi davom etmoqda.

Uchinchidan, turli siyosiy markazlar tomonidan ishlab chiqilayotgan bosqinchilik strategiyalari kuch tizimlaridan ko'ra, urushning noodatiy usullariga tayangan holda o'z samaradorligini namoyish etmoqda.

Chunki, bugungi kunda o'zining iqtisodiy, geosiyosiy va boshqa manfaatlarini qondirish yo'lida biror bir davlat o'z armiyasini boshqalarga nisbatan ochiqchasiga qo'llashdan tiyilib, o'zga xududlarni zabt etish uchun, avvalo, uning jamiyati ongini egallash, ular kuchidan foydalanish kabi g'oyalarni o'zida mujassam etgan axborot va gibrud urushlar konsepsiyalariga tayanmoqda. Demak, bugungi kunda odamlarning mafkurasi, ma'naviyati, ruhiyati va qarashlari nafaqat siyosatchilar, balki harbiy san'at namoyandalari uchun o'ta muhim omilga aylanib ulgurgan. Xususan, zamonaviy harbiy operatsiyalarning salmoqli ulushini axborot, psixologik, gumanitar va boshqa operatsiyalar tashkil etayotganligi yuqoridagi fikrimizga asos bo'la oladi.

Mana shunday vaziyatda inson o'z mustaqil fikriga, zamonlar sinovidan o'tgan hayotiy-milliy qadriyatlar negizida shakllangan sog'lom dunyoqarash va mustahkam irodaga ega bo'lmasa, turli ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarga, ularning goh oshkora, goh pinhona ko'rinishdagi ta'siriga bardosh berishi amrimaholdir.

Ularga qarshi kurashda axborot oqimlarini to'sib qo'yish, odamlarga qandaydir cheklovlarni joriy etishdan ko'ra, jamiyatning turli qatlamlari, ayniqsa, yosh avlodda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Mustahkam hayotiy pozitsiya - bu insonning kundalik hayotda qarashlari, bilimlari va maqsadlarining ko'zgidir. U insonning tug'ilishidan to umrining oxirigacha ham salbiy, ham ijobiy ta'sir qiladigan ichki va tashqi omillar bilan uyg'unlashgan holda shakllanib boradi. Xususan, mukammal ta'lim-tarbiya olgan, mustaqil fikr va qarashlarga ega, umumbashariy qadriyatlarga sodiq kishining hayotdagi pozitsiyasi, befarq, loqayd, bilimsiz, mustaqil o'z fikriga ega bo'lmagan, umumbashariy qadriyatlardan uzoq bo'lgan shaxs pozitsiyasidan butunlay farq qiladi. Jumladan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega kishi o'zining bilimi, qarashlari va umumbashariy qadriyatlariga asoslangan holda har qanday ta'sirlarga bardosh bera oladi, ikkinchisi esa aksincha, ta'sirlar girdobida qoladi.

Shu o'rinda insonda mustahkam hayotiy pozitsiyani shakllantirishda o'ta muhim shart hisoblanadigan, mafkuraviy immunitetning o'rni va ahamiyatiga, uni tashkil qiluvchi unsurlarga kengroq to'xtalib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Mafkuraviy immunitet – shaxs, ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlardan himoya qiluvchi tizimdir. Mafkuraviy immunitet – ma'naviy barkamol, irodasi baquvvat, imoni butun shaxsni tarbiyalashda, har qanday reaksiya, buzg'unchi xarakterdagi g'oyaviy tashabbuslarga bardosh bera oladigan yoshlarni tarbiyalashda qo'l keladi. Davlat va millatning ma'naviy birligi, ma'naviy sog'lomligini himoya qiluvchi g'oyaviy qalqon vazifasini bajaradi.

Mafkuraviy immunitet *mafkuraviy bilim, his-tuyg'u, iroda, ko'nikma va malaka* kabi tarkibiy qismlardan, va quyidagi uchta unsurlardan tashkil topgan. Xususan, uning *birinchi unsuri*, bu *bilimdir*. Ammo, bilimlar ko'p. Masalan, buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi va amaliyoti tarafdorlari ham muayyan "bilim"larga tayanadilar va uni boshqalarga singdirishga harakat qiladilar. Shunday ekan, bir tomondan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqelikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyishiga va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim bo'lsa, ikkinchi tomondan, bu bilimlar o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va xalq manfaatlarini, umuminsoniy qadriyatlar ustuvorligi bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i lozim.

Mafkuraviy immunitet tizimining *ikkinchi asosiy unsuri* ana shunday bilimlar zamirida shakllanadigan *qadriyatlar tizimidir*. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zamirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, shaxs, millat yoki davlatning qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va mafkuraviy tajovuzlar qarshisida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi.

Ammo, bilimlar va qadriyatlar tizimi ham mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki unsur mafkuraviy immunitetning *uchinchi muhim unsuri*, ya'ni *ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy-ma'rifiy sohalaridagi aniq mo'ljal va maqsadlar tizimi* bilan bog'liqdir.

Umuman, yoshlarning yot g'oyalarga qarshi tura olishi haqida gapirar ekanmiz, avvalambor, ularning ma'naviy yetuklik, e'tiqodi darajasini bilish juda muhim. Shu munosabat bilan, ma'naviy-mafkuraviy yetuklik ko'rsatkichlarini belgilash va ularning rivojlanganlik darajasini aniqlash zarurati tug'iladi. Maxsus izlanishlar asosida yoshlar ma'naviy bilimlarining quyidagi jihatlari ma'naviy-mafkuraviy yetuklik ko'rsatkichlari sifatida taklif etilgan.

1. Bilimning *to'laligi* – o'z yoshi, mavqei va bugungi kun talabi doirasida ma'naviy va axloqiy tushunchalarga ega bo'lish, ularning mazmun-mohiyatini tushunish va mustaqil tarzda talqin eta olish.

2. Ma'naviy bilim va qarashlarning *mantiqiy asoslangani* - kundalik hayotdagi xulq shakllari, shaxs tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan qaltis harakatlar va mavjud tahdidlarga oid masalalarni oqilona, ma'lum guruhlarga ajratgan holda tahlil qila olish.

3. Mavjud ma'naviy bilim va shakllangan xislatlarning shaxs uchun *ahamiyatliligi*. Vaziyat va mavjud sharoit talabiga ko'ra Vatan manfaatiga mos keluvchi qarashlarni yoqlab chiqish va ularni ustuvor qo'yish.

4. Yoshlardagi ma'naviy bilim va qarashlarning *mustahkamligi*. Bu jihatning namunadagi ko'rsatkichi bo'lib, shaxs ma'naviy xislatlarining e'tiqod darajasiga yuksalganligini ta'kidlash mumkin.

5. Ma'naviy bilimlarning *amaliyligi*. Shaxsning o'z axloqiy va ma'naviy jihatlarini nafaqat og'zaki ravishda, balki xulqida ham namoyon etishi lozimligini kiritish mumkin.

Yuqoridagilarga asoslangan holda yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga e'tibor qaratish, ularni har tomonlamaqo'llab-quvvatlash, o'z imkoniyatlarini namoyish etish uchun sharoit yaratish davlat tomonidan amalga oshiriladigan vazifalar qatoriga kirsa, ularni milliy qadriyatlar asosida tarbiyalashda jamiyat va oilalarning o'rni beqiyosdir.

Ma'lumki, farovon hayot - mukammal tarbiyadan boshlanadi. Tarbiya mukammal bo'lishi uchun, esa bu masalada bo'shliq paydo bo'lishiga yo'l qo'yib bo'lmaydi. Yoshlar tarbiyasida ota-ona, mahalla, jamiyat institutlari va davlat qachon bir xilda ish olib borsa, bu o'z samarasmini beradi. Aksincha, davlat tomonidan amalga oshiriladigan ishlar bilan chegaralanib, o'z farzandlari tarbiyasiga yaqindan yondashmaydigan oilalarda hayotiy pozitsiyasi barqaror bo'lmagan, tashqi ta'sirlarga moyil bo'lgan shaxslar voyaga yetadi.

Prezidentimiz ta'biri bilan aytganda, yoshlar o'z davrining talablari bilan uyg'un bo'lsin, lekin, ayni paytda o'zligini ham unitmasin. Biz kimmiz, qanday ulug' zotlarning avlodimiz, degan da'vat ular qalbida doimo aks-sado berib, o'zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan deya ta'kidladi.

Xulosa qilib aytganda, mafkuraviy immunitet shaxs tomonidan Vatan, millat uchun ko'ngilli, g'oyaviy asoslanib amalga oshiriladigan kundalik ishlarida namoyon bo'ladi. Bu faollik milliy birlik, ma'naviy yuksaklikka xalaqit berayotgan sifatlar, yot qarashlar, milliy xavfsizligimizga, ichki va tashqi tahdidlarga ochiq va mardona qarshi turishni ham o'z ichiga oladi. Boshqacha aytganda, elim, yurtim deb yashashning har bir kishida, jamoada, jamiyatda namoyon bo'lishini anglatadi. Bu esa milliy g'oyani amaliy kuchga aylantirish va buzg'unchi mafkuraviy

ta'sirlardan aholini, yoshlarimizni himoya qilishning shartlaridan biridir. Zero, o'rta asrda yashagan xitoylik faylasuf Van Shoujen aytganidek: "Fikr va so'z amaliyotga yo'naltirilganda ularning har ikkisi ham moddiyatga - narsaga aylanadi".

FOYDALNILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublkasi Konstitutsiyasi - Toshkent: "O'zbekiston" nashriyoti 2023. - 80 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 4-avgust "O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari harbiy xizmatchilarining ma'naviy-ma'rifiy saviyasini oshirish tizimini tubdan takomillashtirish to'g'risida"gi PQ-3898-son Qarori.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi boskichga kutarish tugrisida"gi PQ-3160 Karori. 2017 yil 28 iyul // Ma'naviyat, 2018 yil 28 iyul.
4. Quronov M. "Ma'naviy tahdidlarga qarshi kurashning ilmiy-uslubiy hamda g'oyaviy-mafkuraviy asoslari" mavzusidagi respublika ilmiy-uslubiy konerensiyasi materiallari. - T.: Muharrir, 2010. - 3 b.
5. O'R Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 72-sessiyasidagi nutqi // Vatanparvar, 2017 yil 22 sentabr.
6. Sharp G. The Anti Coup. Boston, Mass.:The Albert Einstein Institution, 2003.